

Uzbekistan Airways Sales ish kuni davomiyligini 21.00 gacha uzaytirdi

2022 5 July

Toshkentdagi aviachiptalar sotuvi bosh ofisi – Uzbekistan Airways Sales yo'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida 2022-yil iyul-avgust oylari mobaynida yangi ish jadvaliga o'tmoqda. Yo'lovchilarga yanada qulay bo'lishi uchun 2022-yilning 5-iyulidan boshlab Uzbekistan Airways Sales filiali har kuni soat 09:00 dan 21:00 gacha faoliyat ko'rsata boshlaydi. Bu esa yo'lovchilarga yanada ko'proq xizmat ko'rsatishga imkon beradi.

Ma'lumot uchun: Uzbekistan Airways Sales filiali quyidagi manzilda joylashgan: Amir Temur shohko'chasi, 51-uy.